YOSHLARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI TAHLILI

Saloxov A.Q

Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro ma'rifatparvar jadidlarining ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy merosi tahlil etiladi. Xususan, ularning yosh avlodda millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, insoniy fazilatlar va madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni shakllantirishga doir g'oyalari asosida tolerantlikni tarbiyalashning namunaviy modellari ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvarlik, tolerantlik, millatlararo totuvlik, ta'lim, tarbiya,pedagogik tahlil,pedagogik modellar.

Аннотация: В статье анализируется образовательное наследие современных просветителей Бухары. В частности, на основе их представлений о формировании у молодого поколения межнационального согласия, толерантности, человеческих качеств и готовности
к межкультурному общению на научной основе выявлены модельные модели воспитания толерантности.

Ключевые слова: Просвещение, толерантность, межнациональное согласие, образование, воспитание, педагогический анализ, педагогические модели.

Abstract: The article analyzes the educational heritage of modern educators of Bukhara. In particular, based on their ideas about the formation of interethnic harmony, tolerance, human qualities and readiness for intercultural communication in the younger generation, model models of tolerance education are identified on a scientific basis.

Key words: Education, tolerance, interethnic harmony, education, upbringing, pedagogical analysis, pedagogical models

Kirish

Jahon pedagogikasida tolerantlikni tarbiyalash masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu borada milliy meros, xususan, XIX–XX asr boshlarida faoliyat yuritgan ma'rifatparvar jadidlar ilmiy va amaliy yechimlarni taklif etganlar. Ular ta'limning mazmuni, shakli va maqsadlarida bag'rikenglik, mulohazakorlik, millatlar va dinlar o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga katta e'tibor qaratishgan. Buxoro jadidlarining pedagogik qarashlari 19 asrning oxiri va 20 asrning boshlaridagi maorif va ma'naviyat sohasida yuzaga kelgan islohot harakatlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham ahamiyatli hisoblanadi. Jadid mutafakkirlari ta'lim-tarbiya

ISSN 3030-3907

orqali milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik bag‘rikenglik kabi axloq me’yorlarini yoshlar ongiga singdirishni muhim deb hisoblaganlar. Ular milliy madaniyat, til va tarixni o‘rgatishni ta’limning muhim qismi deb bilganlar. Jadidlar uchun yaxshi muallim — jamiyatni isloh qiluvchi asosiy kuch. Ular muallimlarning zamonaviy pedagogik yutuqlarga tayangan holda, axloqli, madaniyatli, fidoiy bo‘lishini talab qilganlar. Muallim nafaqat dars o‘tuvchi, balki tarbiya beruvchi shaxs sifatida qaralgan. Buxoro ma’rifatparvar-jadidlari ta’lim-tarbiya sohasida quyidagi usullarni joriy qilishni targ‘ib qilishgan. Jumladan,yangi usuldagi maktablar ochish (usuli jadida), zamonaviy fanlarni targ‘ib qilish, milliy va diniy uyg‘onish g‘oyalari, maqolalar, dramalar va kitoblar yozish orqali jamiyatni ma’rifatga chorlash, ayollar ta’limini himoya qilish, Buxoro amirligidagi islohotlarni talab qilish va boshqalar.

Jadidlarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari avvalo shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, jamiyat farovonligiga xizmat qilishni ko‘zlagan. Masalan, Abdurauf Fitrat o‘zining "Rahbari najot" asarida "jamiyat taraqqiyoti uchun barcha toifalar o‘zaro hurmat va hamkorlikda yashashlari kerak" deb ta’kidlaydi. Bu qarash zamonaviy pedagogikadagi tolerantlik nazariyasiga uyg‘un keladi.

Jadidlar tolerantlik — bag‘rikenglik, dinlararo va millatlararo hamjihatlik g‘oyalarini ilgari surishgan. Ularning bu boradagi qarashlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Millatlararo hamjihatlik: Jadidlar turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tinchlikni targ‘ib qilishgan. Masalan, Fitratning asarlarida Turkiston xalqlarining birlashishi g‘oyasi ustuvor hisoblangan. Buxoro jadidlari, xususan Abdurauf Fitrat, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim omili sifatida ko‘rishgan. Fitratning asarlarida Turkiston xalqlarining birdamligi, diniy va milliy bag‘rikenglik g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Uning "Turkiston uchun" nomli maqolasida turkiy xalqlarning madaniy, ma’naviy jihatdan birlashishiga chaqiriq bor. U bu birlikni faqat siyosiy emas, balki ta’lim-tarbiya orqali amalga oshirish mumkin deb bilgan. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, bu g‘oya jamiyatda tolerantlikni shakllantirishda ta’lim muassasalarining roli katta ekanini ko‘rsatadi. Fitrat ta’lim tizimida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, muloqotga ochiq, boshqa millatlarga hurmat bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalashni maqsad qilgan. Uning ta’limda "insonparvarlik", "ilmga intilish" va "boshqalarga hurmat" kabi tamoyillarni ilgari surishi bevosita tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Fitratning bu qarashlari hozirgi kunda ham pedagogik jihatdan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Millatlararo munosabatlar murakkab tus olayotgan zamonda ta’lim muassasalarida ko‘p millatli muhitda hamjihatlikni shakllantirish – barqaror

ISSN 3030-3907

taraqqiyotning asosidir. Shu ma’noda, jadidlar merosi bugungi tolerant shaxs tarbiyasi uchun boy ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dinlararo bag‘rikenglik: Jadidlar Islom dinining bag‘rikenglikka chaqiruvchi asosiy tamoyillarini ilgari surar ekan, boshqa din va e’tiqodlarga ham hurmat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatishgan.

Bugungi globallashuv jarayonlarida turli din va e’tiqod vakillari o‘rtasidagi hamjihatlik, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni shakllantirish masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod ongida dinlararo bag‘rikenglikni tarbiyalash milliy ma’naviyat va ta’lim siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Buxoro jadidlari qoldirgan ma’rifiy va pedagogik merosni o‘rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Jadidlarning ta’lim tizimida insonparvarlik, adolat, bag‘rikenglik, mulohazali fikr yuritish va boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ular madrasalarda faqat diniy bilimlarni emas, balki dunyoviy fanlarni ham o‘qitish orqali keng fikrlaydigan, boshqa din va madaniyatlarga ochiq munosabatda bo‘ladigan avlodni tarbiyalashni maqsad qilganlar. Abdurauf Fitrat o‘zining “Osiyo yoxud Yevropalilarga xat” asarida shunday yozadi: “Haqiqiy Islom — tinchlik, bag‘rikenglik va ilm dinidir. Agar biz boshqa din egalarini yomonlasak, bu bizning na musulmonligimizga, na insoniyligimizga to‘g‘ri kelmaydi”. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, jadidlarning faoliyatida multikulturalizm, interfaol ta’lim usullari, islohotchilik, tanqidiy fikrlash va o‘zaro hurmat kabi zamonaviy pedagogik tamoyillarning ildizlari namoyon bo‘ladi. Ularning ta’limiy metodlarida bag‘rikenglikka da’vat etish, dunyoqarashlarni boyitish va shaxsning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish asosiy o‘rin egallagan. Buxoro jadidlarining diniy bag‘rikenglikka oid g‘oyalari bugungi globallashuv sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari nafaqat diniy erkinlikni, balki umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilishga xizmat qilgan. Shu jihatdan, jadidlar merosi zamonaviy ta’limda bag‘rikenglikni shakllantirishda muhim manba bo‘la oladi.

Fikrlar xilma-xilligiga hurmat: Jadid ziyolilari erkin fikrlash, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va muloqot madaniyatini shakllantirish tarafdori bo‘lganlar. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama kamol toptirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan fuqaroni tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu borada tarixiy meros, xususan, jadidlar faoliyati va ularning ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari muhim pedagogik manba hisoblanadi. Xususan, Buxoro Jadid ziyolilarining erkin fikrlash, fikrlar xilma-xilligiga hurmat va muloqot madaniyatini shakllantirish borasidagi qarashlari bugungi kun ta’lim amaliyoti

ISSN 3030-3907

uchun dolzarb ahamiyatga ega. Jadid ziyolilari fikrlar xilma-xilligini jamiyat taraqqiyoti uchun tabiiy va zaruriy holat deb bilishgan. Ular yoshlarning faol muloqotda bo‘lishi, qarama-qarshi fikrlarga bag‘rikeng munosabatda bo‘lishi, axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatilgan. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov maktablarda turli fikrlar muhokamasiga asoslangan darslar o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish tarafdori bo‘lgan. Muloqot madaniyatiga oid qarashlar ham jadidlar ta’lim tizimida muhim o‘rin tutgan. Ularga ko‘ra, samarali muloqot fikrni erkin ifoda etish, boshqalar fikrini tinglash, o‘z nuqtai nazarini asosli himoya qilish orqali shakllanadi. Bunday yondashuv jamiyatda demokratik munosabatlarning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Buxoro jadidlari pedagogik qarashlarida ta’limning asosiy vazifasi insoniyatni ma’rifatga yetaklash, zulmatdan chiqarish, fikriy mustaqillikka erishishdan iborat ekanini ta’kidlashgan. Shu jihatdan, ularning g‘oyalari bugungi kunda ham tolerantlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro jadid ziyolilarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari zamonaviy pedagogika uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Erkin fikrlash, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va muloqot madaniyatini tarbiyalash orqali jadidlar kelajak avlodni demokratik, bag‘rikeng, taraqqiyparvar jamiyat fuqarosi sifatida shakllantirishni maqsad qilganlar. Ularning bu boradagi merosi bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida faol tatbiq etilishi lozim. Jadidlarning pedagogik maqsadlari va tolerantlik g‘oyalari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kunda ham zamonaviy ta’lim tizimi uchun dolzarbdir. Ular shakllantirgan g‘oyalar ma’rifatparvarlik, erkin fikr, bag‘rikenglik va zamonaviy bilimlarga intilgan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Sadriddin Ayniīning "Odobnoma" asarida millat, din va urf-odatlar xilma-xilligi tabiiy hol sifatida qabul qilinib, yoshlarga boshqalar fikrini hurmat qilish, tinch va mulohazali muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini o‘rgatish tavsiya etilgan.

Buxoro jadidlari tomonidan yosh avlodni zamonaviy ta’lim va tarbiya bilan ta’minlash, ularni milliy-mənaviy qadriyatlar asosida kamol toptirish, bag‘rikenglik va madaniy muloqot ruhida tarbiyalashga qaratilgan ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Buxoro jadidlari Abdurauf Fitrat, Sodiq Muhammad Yusuf, Abdulqodir Shakuriy kabi ziyolilar ta’lim orqali millat taraqqiyotini ta’minlash, yoshlarni ma’rifatparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashni asosiy maqsad sifatida belgiladilar. Ular o‘z asarlarida bag‘rikenglik, madaniy muloqot, dunyo xalqlari bilan hamkorlik va o‘zaro tushunish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar.

ISSN 3030-3907

Madaniy muloqot – bu turli madaniyat va e’tiqod vakillari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlik asosidagi muloqotdir. Buxoro jadidlari ta’lim orqali bunday muloqotni rivojlantirishga harakat qildilar. Ular ta’lim dasturlariga jahon ilmi, tilshunoslik, tarix va adabiyot fanlarini kiritgan holda, yoshlarni ochiqfikrli va bag‘rikeng shaxslar sifatida tarbiyalashga intildilar. Bugungi kunda tolerantlik va madaniy muloqot yosh avlodni tarbiyalashda eng muhim masalalardan biridir. Jadidlar ilmiy merosini o‘rganish va undan foydalanish zamonaviy ta’limning mazmun-mohiyatini boyitadi. Pedagogik jihatdan, jadidlar tajribasi orqali yoshlarda muloqot kompetensiyalarini shakllantirish, ijtimoiy faollikni kuchaytirish va global muammolarga munosabatni o‘stirish mumkin. Buxoro jadidlarining ilmiy merosi madaniy muloqot va bag‘rikenglik tarbiyasida beqiyos ahamiyatga egadir. Ularning g‘oyalarini zamonaviy ta’limda tatbiq etish orqali yoshlarda fuqarolik mas’uliyati, insoniylik va hamjihatlik ruhini yuksaltirish mumkin.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining muhim bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu maktablar an’anaviy maktab va madrasalardan farqli ravishda, zamonaviy bilimlar va yangi pedagogik usullar asosida ta’lim berishga yo‘naltirilgan edi. Muhammadjon Homid (1868–1929) – Buxoro amirligida va keyinchalik Turkiston mintaqasida yangi usulda ta’lim berishni ilgari surgan taniqli jadid muallimlardan biri hisoblanadi. U Buxoroda "Madrasai Homidiya" deb atalgan yangi usul maktabini tashkil etgan.

JADIDLAR TOLERANTLIKNI ShAKLLANTIRIShDA QUYIDAGI MODELLARGA ASOSLANGAN:

Axloqiy-huquqiy tarbiya modeli: Inson huquqlari va burchlari, adolat, tenglik haqida bilim berish.

Madaniy integratsiya modeli: Turli madaniyatlarni o‘rganish va ularga hurmat ruhida tarbiyalash.

Faol muloqot modeli: Yoshlarni fikr almashish, tinglash, bahs madaniyatiga o‘rgatish.

Bu modellar zamonaviy inklyuziv ta’lim konsepsiyasi bilan hamohang keladi va bugungi pedagogik jarayonda faol qo‘llanilishimiz mumkin.

Buxoro jadid ma’rifatparvarlarining merosi yoshlarda tolerantlikni shakllantirishda boy pedagogik asos hisoblanadi. Ularning g‘oyalari bugungi ta’lim jarayonida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy tarbiya

ISSN 3030-3907

konsepsiyalariga uyg‘undir. Ular taklif etgan modellar umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tolerantlik tarbiyasini shakllantirishda namuna bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Qayumov, B. Jadidchilik va maorifparvarlik. Toshkent:2001, O‘qituvchi.
2. Fitrat A. Turkistonning yongicha tarixi. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 45–46
3. Tojiboev Sh. "Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari". – Toshkent: Fan, 2004. – B. 42–45.
4.Xoliqova, S. “Jadid maktablarida multikulturalizm g‘oyalari.” Pedagogika va psixologiya, 2021, №2, 67-b.
5. Fitrat, A. “Osiyo yoxud Yevropalilarga xat.” Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 23-b.
6. Yunusova Z. "Jadidlik ta’limotining mafkuraviy asoslari" / Z.Yunusova. — Toshkent: Fan, 2018. — B. 91-95.
7. Rahimov Q. **O‘zbekistonda jadidchilik harakati va ma’rifat**. – Toshkent: Fan, 2000. – 112-b.
8.Hasanov B. **Jadid maktablari va ularning ta’lim-tarbiya tizimi** // “Tarbiya” jurnali, 2019, №1, 25-bet.
9.Nazarov, K. “Buxoro jadidlari ta’lim-tarbiya masalalarida.” — Toshkent: Ma’naviyat, 2005. B.112

ISSN 3030-3907